

SIROJIDDING SAYYID SHE'RIYATIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING
QO'LLANILISHI

Yo'lchiyeva Odina Alisher qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning she'rлarida qo'llangan onomastik birliklar va ularning ma'nosiga oid fikrlar yuritilgan. Bundan tashqari shoir she'rлarining mavzuviy g'oyasi hamda tahlil jarayonida uchragan atoqli nomlar ilmiy nazariy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, she'r, toponomika, antroponomika, gidronomika, kosmonomika, tahlil, misra.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПОЭЗИИ
СИРАДЖИДИНА САЙИДА**

Аннотация: в данной статье рассматриваются ономастические единицы, используемые в стихотворениях народного поэта Узбекистана Сироджиддина Сайида, и их значение. Кроме того, научно проанализирована тематическая идея стихотворений поэта и известные имена, встречающиеся в ходе анализа.

Ключевые слова: ономастика, поэзия, топономика, антропономика, гидрономика, космономика, анализ, стих.

THE USE OF ONOMASTIC UNITS IN THE POETRY OF SIRAJIDDIN SAYYID

Abstract: this article discusses the onomastic units used in the poems of the People's Poet of Uzbekistan, Sirajiddin Sayyid, and their meaning. In addition, the thematic idea of the poet's poems and famous names encountered during the analysis were scientifically analyzed.

Key words: onomastics, poetry, toponomics, anthroponomics, hydronomics, cosmonomics, analysis, verse.

She'riyatda nom bilan bog'liq tushunchalar keng qo'llaniladi. Ayniqsa, shoir Sirojiddin Sayyid she'rлarida vatanga, yurtga va xalqqa bo'lgan muhabbatini shunday turli nomlardan foydalangan holda aks ettirganligini ko'rishimiz mumkin. Shu ma'noda ijodkor she'rлarida atoqli shaxs, joy, yulduz, sayyora, suv havzalariga hamda o'simlik, hayvon nomlariga oid birliklar faol qo'llanilishi bitiklarining jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan deyish mumkin.

Xususan, shoirning quyidagi she'rida tarix bilan bog'langan joy nomi qo'llanilgan bo'lib, mohiyatni ochishda muhim ahamiyat kasb etgan deyish mumkin. Toponimika

“xalqning o’tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o’z aksini topgan bo’ladi va u asosan joy va hududlarning atoqli nomini o’rganadi” [1, 44].

Insoniyat ibtidosin

Teshiktoshga qaratgan

Mard elimsan, or-nomusning

Qo’rg’onlarin yaratgan. [3, 8]

Ushbu misrada keltirilgan Teshiktosh toponimi, ya’ni g’or Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan. G’orning yuqori qismi teshik bo’lganligi uchun shunday nomlangan. Ushbu g’ordan turli hayvon, o’simlik qoldiqlari, qurol-yarog’ anjomlari hamda neandertal inson qoldiqlari topilgan. Muallif ushbu onomastik birlikni qo’llar ekan, she’riy misrada bu tarixga oid tushunchalar badiiy talqin etilganligini guvohi bo’lamiz.

London nima menga?

Chikago nima?

Nimadir Parijning oq bilaklari?

Mening yuragimga yaqinroq erur

Jayhun sohillari, o’t, baliqlari. [4, 17]

Misralarda keltirilayotgan London, Chikago, Parij toponimlari qo’llab, she’rning ma’nosini kuchaytirishga erishgan. Ushbu misralarda nafaqat toponim, balki Jayhun gidronimidan ta’sirchanlikni oshirshda foydalanilgan. Jayhun, ya’ni yurtimizdagি yirik daryolardan biri Amudaryo daryosining qadimgi nomi. “Gidronim so‘zi (yunoncha: hudor-suv) suvli har qanday obyektlarning atoqli otini bildiradi” [1, 49].

Lirik qahramon Yevropadagi yirik davlatlardan biri, Angliyaning poytaxti va tarixiy shahri London Fransiya shahrining mashhur poytaxti Parij, rivojlanish bo'yicha yuqori o'rirlarni egallagan Shimoliy Amerika qit'asidagi yirik shahar Chikagolarning vatan daryosidagi o'tlar, baliqlarga arzimasligini aytib, ona tuproqqa ko'ngil izhorini qiladi. She’rning mavzuviy-g’oyasidan Vatanga, yurtga bo’lgan ishq ta’mini sezish mumkin.

Bitsaydim gar Termizdan to

Qandim, Shumanay qadar,

Zavqu shavqim, hayratlarim

Bo’lgaydi yuz ming daftар. [3, 23]

Termiz, Qandim, Shumanay kabi shahar nomlari ham toponimga mansub. Satrlarda kelayotgan Termiz hozirgi Surxondaryo viloyatining markaziy shahri, Qandim esa Buxoro viloyatidagi shaharlardan biri. Shumanay esa hududimizdagи Navoiy viloyatiga to‘g’ri keladi. Shoир bu misralarda bor quvonchi va xursandchiliklari bilan go’yo yurtimizning u chekkasidan to bu chekkasigacha bo’lgan masofaga qadar cho’ziluvchi asar yozganida yuz ming daftarga to‘g’ri kelishi haqidagi tavsifni berib, o’z yurtiga bo’lgan mehr va muhabbatni hatto qog’oz va qalam orqali tasvirlash naqadar murakkabligiga o‘qirman e’tiborini tortadi.

Shu ma’noda shoир she’rlarida antroponimlar ham faol qo’llanilish holarlarini uchratish mumkin. “Antroponim yunoncha: antropos – kishi atoqli oti” [1, 37].

Odam Ato birlan Momo Havoni

Yaratdi ham berdi jabru jafoni.

O'n sakkiz yoshimda o'tgan xatoni

Qirq yoshimda takror qilsam kulgili.[2, 174]

Bu bandda tilga olingen Odam Ato va Momo Havo kabi antroponimlari orqali she'rnning badiiy g'oyasini ochishda foydalangan deyish mumkin. Bunda "Odam Ato va Momo Havo yer yuziga tushgan ilk odamlar bo'lib, ular yerning ikki xil joyiga tushiriladi, ya'ni Odam Ato Hindistondagi Navz yoki Bavz tog'iga, Momo Havo esa Jiddada hayot kechirishga majbur bo'ladi"[5, 34]. Keyinchalik esa ular yerda turli mashaqqatlarga duch kelib, bir-birlarini topadi va hayoti davomidagi turli xil qiyinchiliklarni birgalikda boshidan o'tkazadi. Yuqoridagi voqelikka ishora qilar ekan, yosligida qilgan xatolarini qirq yoshida takrorlash kulgili ekanligini, ya'ni xatolarini anglab turib ham yana xato qilishni qoralash maqsadida mazkur antroponimlarga murojaat qilgan deyish mumkin.

Alpomishning, Temurbekning avlodisan,

Arslonurak mard zotlarning zuryodisan.[3, 86]

Alpomish antroponimi o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub "Alpomish" dostonining bosh qahramoni. Unga xos xususiyatlar, ya'ni jasurligi, sadoqat va diyonatligi, botir va dovyuraklik fazilat va xislatlari o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirilishi uchun ham qo'llanilgan. Temurbek esa tarixda o'z nomini butun jahonga tanitgan hamda yetti iqlim hukmdori Amir Temurga xos xususiyatlarini eslatish uchun qo'llanilgan antroponim. Shoir ushbu satrlarda yosh avlodlar Alpomish va Amir Temur kabi jasur va dovyurak insonlarning zuryodi ekanligi eslatish orqali vatanparvarlikni oshirish uchun ham tilga olingen.

Nonko'r beklar, beqibat mirzolar,

Kimlar Sizga qazmadilar choh, Bobur.[2, 12]

Bobur antroponimi orqali tarixda yashab o'tgan, o'z yurtidan ayrılgan va Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solgan buyuk tarixiy shaxs, shoir, mohir sarkardaga qilingan xiyonatga ishora qiladi. Satrlarda esa Boburga xiyonat qilgan beklar, o'z yaqinlari hamda uni sog'inch va azob girdobiga g'arq qilgan dushmanlarning qilmishlarini yodga solidi. Buyuk shoh va shoir Bobur esa hayoti iztirob va uqubatlarli o'tsa-da, doim kurashib yashaganligini, irodasi mustahkam ekanligini anglash mumkin. Bu shoirning birgina antroponim bilan katta tarixiy voqelikni tasvirlashga erishganligini ko'rsatadi.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida turli suv havzalarining nomi qo'llanilishi ham faol. Shoirning quyidagi she'riy misralarini misol tariqasida keltirish mumkin:

Umring o'tar O'riklisoy

Suvlariday sharqirab

Izlaringdan nurlar qolsin

Yo'llar qolsin yarqirab.[3, 20]

O'riklisoy gidronimi Zomin tumanida joylashgan bo'lib, atrofi dam olish maskaniga aylantirilgan soy. Ushbu misralarda inson umri ham O'riklisoy kabi juda tez oqib ketadi, vafot etganidan keyin esa faqat yaxshi nom va chiroyli xotiralar orqali yodga olinsin, ya'ni u

hayoti davomida qilgan barcha yaxshi va xayrli ishlari bilan abadiy xotiralarda qolsin, degan ezgu tilak singdirilgan deyish mumkin.

Bundan tashqari, shoir she'rlarida kosmonimlari ham uchraydi: "Kosmonim (yunoncha: kosmos-olam, koinot) – kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli oti, onomastik ko'lam tiplaridan biri hisoblanadi" [1, 57]. Quyidagi satrda tahlil qilar erkanmiz, kosmoniv vositasida badiiy g'oya ochib berilganligini ko'rish mumkin.

Go'yo tug'ilgandek falak mushtlari –

Xatarnok charaqlar Zuhal, Mushtariy. [3, 187]

Misrada kelayotgan xatarnok so'zi xatarli, xatar bilan ma'nosida kosmonimlarning ko'rinish holatini aks ettirgan. Zuhal va Mushtariy kosmonim Saturn va Jupiter sayyorasining qadimgi nomlari. Satrda esa go'yo falakda xavf-xatar tug'ilib, Saturn va Jupiter sayyoralarini xatar borligini sezib, uni bartaraf etish uchun charaqlamoqda, degan qadimiy tasavvurlar bilan bog'liq bashoratlar eslatilgan. Ya'ni ajdodlarga xos fikrlash tarziga ishora qilgan deyish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shoir o'z she'rlarida onomastik birliklarga keng o'rin bergan. Uning so'z mahorati namayon bo'lishida bu birliklar yetakchi ekanligini aytish mumkin. Ya'ni qo'llanilgan barcha atoqli nomlar o'zining boy tarixi, o'ziga xos xususiyati bilan she'rning g'oyasiga ta'sir o'tkazgan. Tarixiy shaxs va joy nomlari, suv havzalari, kosmik jismlarning nomi she'rning ma'no va mohiyatini ochib berish bilan birga badiyilagini ta'minlashda muhim vazifa bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'doshev B. O'zbek omonastikasi masalalari. –Samarqand:. SamDU bosmaxonasi. 2011. –B. 37, 44, 49, 57.
2. Sayyid S. Dil nafasi. –Toshkent:, O'zbekiston nashriyoti. 2007. –B. 174.
3. Sayyid S. Matonat manzumasi. –Toshkent:, Mashhur press nashriyoti. 2018. –B. 8, 20, 23, 187.
4. Sayyid S. Sevgi mamlakati. –Toshkent:, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. –B. 17.
5. Tursunov A. Payg'ambarlar tarixi. –Toshkent:, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2016. –B. 34.